# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 17-yanvar, № 12 (8635) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YEVROPA ITTIFOQI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-yanvar kuni Yevropa Ittifoqining Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Margaritis Sxinas boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi.**



Suhbat avvalida Yevroittifoqning yuqori martabali vakili YI va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi bilan samimiy qutlab, davlatimiz rahbariga Yevrokomissiya rahbari Ursula fon der Lyayen va Yevrokengash raisi Sharl Mishelning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

YI bilan ko‘p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda hamkorlik sezilarli darajada faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishelning O‘zbekistonga tashrifi, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevroittifoq rahbarlarining ikkita uchrashuvi, o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha Samarqand konferensiyasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

YI va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi” amalga oshirilmoqda. “Markaziy Osiyo — YI” birinchi sammitini O‘zbekistonda tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Yanvar oyi oxirida Bryusselda ikki mintaqaning transport-kommunikatsiyaviy o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashga qaratilgan yirik Investorlar forumi bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston va YI mamlakatlari o‘rtasidagi savdo jadal o‘sib bormoqda, o‘tgan yili uning hajmi 30 foizga oshdi.

Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yuqori texnologik tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. YIning O‘zbekiston uchun savdo preferensiyalari amal qilish muddati uzaytirildi.

Dolzarb mintaqaviy masalalar, shu jumladan, Afg‘onistonga gumanitar yordam ko‘rsatish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA’MINLASH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

2023-yilda mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish 6 foizni tashkil qildi. Jumladan, sanoat — 6, xizmat ko‘rsatish — 6,8, qurilish — 6,4, qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz o‘sgan.

Bu yil yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foizga ko‘paytirib, 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Yig‘ilishda bu boradagi vazifalar, zaruriy chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, eng katta islohotchi bo‘lgan iqtisodiy kompleks xodimlari juda qattiq ishlashi kerakligini ta’kidladi.

Masalan, umumiy sanoat hajmi o‘sgani bilan ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat 40 foizdan oshmayapti. Bular, asosan, importga qaramlik, energiya iste’moli yuqoriligi va ortiqcha xarajatlar ko‘pligi sababli bo‘lmoqda.

Shu bois iqtisodiy kompleks rahbarlari va barcha davlat korxonalari uchun “2024-yil — tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili” bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi. Xaridlar va logistikani maqbullashtirish, energiya resurslarini tejash va raqamlashtirish orqali qancha xarajatni kamaytirish mumkinligi tarmoqlar kesimida ko‘rsatib o‘tildi.

Joriy yilda yirik tarmoqlarda qo‘shilgan qiymatni 45 foizdan oshirish, tannarxni 15 foizga kamaytirish, jami sanoatda 7 foiz o‘sishni ta’minlash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Shu bilan birga, iqtisodiy kompleksdagi rahbarlar faoliyatini oylik, choraklik va yillik samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bilan bog‘lash, o‘rinbosarlar sonini ko‘rib chiqish taklifi ilgari surildi.

Yig‘ilishda moliyaviy intizom masalasiga alohida to‘xtalib o‘tildi.

O‘tgan yili ayrim davlat korxonalari tomonidan dividend va soliq to‘lovlari bo‘yicha budjetga 8 trillion so‘m tushum ta’minlanmagan. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida soliq tushumlari 20 foiz o‘sgan bo‘lsa, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryoda bu ko‘rsatkich 7 foizga ham yetmagan.

Bunday holatlar hududiy soliq bo‘limi boshliqlari va o‘rinbosarlari, mahalladagi soliqchilarning ishi sustligini ko‘rsatadi. Shu bois bu tizim qayta ko‘rib chiqilib, yangi yo‘nalishlar belgilandi.

Birinchi yo‘nalish — 40 mingta budjet tashkiloti bilan ishlash vazifasi tumanlardan Soliq qo‘mitasida yangi tashkil qilinadigan Tumanlararo budjet tashkilotlari inspeksiyasiga o‘tkaziladi. Ushbu inspeksiya to‘liq raqamlashgan bo‘ladi va G‘aznachilik elektron tizimiga integratsiya qilinadi.

Ikkinchi yo‘nalish — qo‘mitada soliq qarzini undirish bo‘yicha ham tumanlararo inspeksiya tashkil etiladi. Unga Majburiy ijro byurosida mavjud vakolatlar beriladi. Buning hisobiga tumanlardagi qo‘shimcha 200 nafar soliqchini mahallabay ishlashga o‘tkazish imkoni bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalish — respublika soliq tushumining 50 foizini beradigan 80 ta eng yirik korxona va 35 ta tijorat banki bilan ishlaydigan alohida tizim bo‘ladi. Buning uchun Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha inspeksiya tarkibida yangi tuzilma tashkil qilinib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan bevosita ishlaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga soliqlar tushumini o‘z vaqtida ta’minlash, korxonalar xarajati asossiz o‘sishining oldini olish bo‘yicha vazifalar qo‘yildi.

Bojxona sohasiga to‘xtalinar ekan, o‘tgan yili import bo‘lgan tovarlarga salkam 60 trillion so‘mlik imtiyoz qo‘llangani, lekin ularning samaradorligi bo‘yicha yetarli tahlil yo‘qligi qayd etildi. Shu bois imtiyoz bilan kirgan tovarlarni birma-bir o‘rganib chiqishga ko‘rsatma berildi.

Budjet tushumi uchun yana katta zaxiralar bu — xususiylashtirish va yerlarni auksion orqali sotish. Lekin xususiylashtirish dasturiga kiritilgan 484 ta davlat aktivi savdoga chiqarilmay turibdi.

Masalan, savdoga qo‘yilgan o‘nlab don korxonalari sotilmasdan turibdi. Negaki, ularning bahosini belgilashda kamchiliklar bor.

Vazirlar Mahkamasiga bu boradagi qoloqliklarni bartaraf etib, joriy yilda 20 trillion so‘m tushumni ta’minlaydigan yangi xususiylashtirish dasturini tayyorlash topshirildi.

O‘tgan yili yerlarni auksion orqali sotishdan 1 trillion so‘m tushum bo‘lgan, 12 mingta yangi loyiha qo‘shilgan. Bunday imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida yil yakuniga qadar 70 ta, kelgusi yili barcha tumanlarning master rejalarini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Bugungi kundagi eng dolzarb masala bu — “yashirin iqtisodiyot”. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xizmatlar, qurilish, sanoat sohalarida katta miqdordagi aylanma “soya”da qolmoqda.

Davlatimiz rahbari “yashirin iqtisodiyot” adolatli raqobatga, halol tadbirkorlar faoliyatiga to‘siq bo‘layotganini aytib, qo‘shimcha choralarni ko‘rsatib o‘tdi.

Hozirda “yashirin iqtisodiyot” va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan 14 ta idora tarqoq holda shug‘ullanmoqda. Bu ishlarni muvofiqlashtirish va kuchaytirish maqsadida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatlari kengaytiriladi. Bu departament eng zamonaviy vositalar va yetuk mutaxassislar bilan ta’minlanib, uning huzurida ilmiy-tahliliy va o‘quv markazi ochiladi. Shu bilan birga, Bosh prokuraturada ham “yashirin iqtisodiyot” bo‘yicha alohida boshqarma va uning hududiy bo‘limlari tashkil qilinadi.

Yig‘ilishda budjet xarajatlarining samaradorligi masalasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yili budjetdan 1,2 trillion so‘mlik noqonuniy xarajat hamda 200 milliard so‘mlik kamomad va o‘g‘riliklarga yo‘l qo‘yilgani aniqlangan. Sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi sohalaridagi dasturlarga ajratilgan mablag‘lar to‘liq ishlatilmagan. Shuningdek, aslida ishlamaydigan xodim yoki bajarilmagan ish uchun haq yozish, asossiz ssuda yoki mukofot pullari olish kabi holatlar ko‘paygan.

Bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyati qoniqarsiz ekani ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois mazkur inspeksiya Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o‘tkazilishi belgilandi.

Bu yil budjetda ko‘zda tutilgan 313 trillion so‘mlik xarajatning to‘g‘ri sarflanishini nazorat qilish vazifasi qo‘yildi.

Inflyatsiyani kamaytirish masalasi ham dolzarb. Ko‘rilgan choralar natijasida o‘tgan yili inflyatsiya 9 foizdan oshmadi.

Mahsulotlar inflyatsiyasini oziq-ovqatni ko‘paytirish orqali jilovlash mumkinligi ta’kidlanib, bu bo‘yicha qishloq xo‘jaligi vaziri va hokimlarga ko‘rsatmalar berildi.

Umuman, joriy yilda ham inflyatsiyani 9 foizdan tushirish choralari muhokama qilindi.

Bank tizimi barqarorligini ta’minlash, iqtisodiyotga kreditlar yo‘naltirish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Bozor mexanizmlari asosida kredit stavkalarini kamida 2-3 foizga tushirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda aholi bandligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bu bo‘yicha yaqinda qabul qilingan dasturni samarali amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Bandlik tizimiga kiruvchi kasbga tayyorlash muassasalari hamda tashqi mehnat migratsiyasidagi ishlar talab darajasida emasligi qayd etildi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga bu kabi kamchiliklarni bartaraf etib, aholini kasbga o‘qitish va ish o‘rinlari yaratish yuzasidan qo‘shimcha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilish yakunida iqtisodiy kompleks rahbarlari, vazirlar va hokimlar joriy yilgi rejalari bo‘yicha axborot berdi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

## “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ma’muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 24-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 20-dekabrda ma’qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning odil sudlovdan foydalanish hamda davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har kimga o‘z huquq va erkinliklari sud orqali himoya qilinishi, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishiga oid normasini amalga oshirish maqsadida ma’muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, shuningdek davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish tartib-taomillarini soddalashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma’muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini fuqarolardan oldindan undirmasdan, ushbu bojni ishni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra aybdor tarafdan undirish tartibini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek davlat bojining ko‘rsatilgan stavkasi miqdori pasaytirilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilmoqda.

**(Davomi 2-betda).**

Oliy Majlis Senatida

## YOSHLAR PARLAMENT YUQORI PALATASINING FAOLIYATI BILAN TANISHDI

*Ma’lumki, parlament yuqori palatasi a’zolari muntazam ravishda navqiron avlod vakillari bilan uchrashib, ularning qiziqishi, maqsad va intilishlari, Senat faoliyatiga doir yangiliklar yuzasidan muloqot o‘tkazishi an’anaga aylangan. Bunday xayrli tadbirlar Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida izchil davom ettirilmoqda.*

Kecha Oliy Majlis Senatida “Parlamentda yoshlar o‘rni” loyihasi doirasida o‘tkazilgan uchrashuv bunga yorqin misoldir.

Unda senatorlar va O‘zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi iqtidorli yoshlari dildan suhbatlashdi.

O‘z navbatida, yigit-qizlarga Senatning asosiy faoliyati, xususan, yuqori palata vakolatlari, senatorlar faoliyatining huquqiy asoslari, ular huquq va majburiyatlari, parlament nazoratining ayrim jihatlari to‘g‘risida keng tushuntirish berildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda dolzarb qonunlarni qabul qilish, davlat dasturlarining ijrosini ta’minlash, parlament nazoratini olib borish hamda ijro organlari va mansabdor shaxslarning xalq oldidagi hisobdorligini oshirish parlament faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Muloqot davomida ishtirokchilar Senatning mahalliy Kengashlar va yoshlar bilan hamkorligi, qonunlar muhokamasida hududlar manfaati qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq qator savollarga javob olish imkoniga ham ega bo‘ldi.

**“Xalq so‘zi”.**

## O‘ZBEKISTON — TARIX KITOBINING O‘ZIGA XOS SAHIFASI

*Amerikaning “InsideHook” nashrida O‘zbekiston turizm salohiyatiga bag‘ishlangan maqola e’lon qilindi.*

*Nashrda qayd etilishicha, boy tarix va madaniyatga ega O‘zbekiston butun dunyo sayohatchilari e’tiborini jalb qiladigan maskanlardan biridir.*

*“Bir paytlar qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining markazida bo‘lgan bu ajoyib go‘sha bugun xitoy, rus, fors, turk va arab madaniyatlari va an’analarining o‘ziga xos uyg‘unligini taqdim etadi”, deya yozilgan manbada.*




Dunyo nigohi

Maqolada, shuningdek, O‘zbekistondagi ajoyib san’at va me’morchilik yodgorliklari haqidagi ma’lumotlar o‘quvchilar e’tiboriga taqdim qilingan.

Qayd etiladiki, Xiva, Buxoro va Samarqand shaharlarida o‘nlab ko‘k rangdagi koshinlar bilan bezatilgan ajoyib obidalar mavjud. Ushbu shaharlarga sayohat voqealarga boy va unutilmas bo‘ladi.

“Masalan, Xivadagi qadimiy Ichan qal’a 60 dan ortiq yodgorlik va muzeylarni o‘zida jamlagan. Buyuk Ipak yo‘li muhitini chinakamiga his etish uchun XIX asr oxirida qurilgan binoda joylashgan “Orient Star Khiva” mehmonxonasida qo‘noq bo‘lish ayni muddao”, deyiladi maqolada.

3

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## ATMOSFERA HAVOSI MUHOFAZASI — DEPUTATLAR NAZORATIDA

*O‘zbekiston Ekologik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasining qo‘shma yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda atmosfera havosi muhofazasi bo‘yicha qonunchilik ijrosiga doir masalalar muhokama qilindi.*

Ekspertlar, ekolog olimlar hamda OAV vakillari ishtirok etgan yig‘ilishda deputatlar mamlakatimizda atmosfera havosini muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasidagi ishlar, ularning natijalariga to‘xtalib o‘tdilar.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining sohaga oid tashabbuslari, bir qator Farmon va qarorlari bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarda dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotgani alohida uqtirildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan har bir shaxsning ekologik huquqlari kafolatlangani muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlandi.

2

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

# “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ma’muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur Qonun fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari sud tartibida himoya qilinishini ta’minlashga, ularning odil sudlovdan foydalanish hamda davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma’muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan **“Davlat boji to‘g‘risida”**gi O‘RQ–600-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 7, 661-modda, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 76-modda, № 3, 214, 216-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 463, 464, 467-moddalar, № 12, 1186-modda; 2023-yil, № 2, 103-modda, № 3, 186-modda, № 4, 265, 269-moddalar, № 6, 444, 445-moddalar, № 7, 538-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) **10-modda**:

**birinchi qismi**:

**1-bandidagi** “davlat boshqaruvi organlarining” degan so‘zlar “mahalliy davlat hokimiyati organlarining, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi **$1^1$-band** bilan to‘ldirilsin:

«$1^1$) jismoniy shaxslar – o‘z huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzayotgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda»;

**ikkinchi qismi** “1” raqamidan keyin «$1^1$» raqami bilan to‘ldirilsin;

2) **ilova 3-bandining “b” kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«

| b) mahalliy davlat hokimiyati organlarining, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan arizalar (shikoyatlar) bo‘yicha | |
|---|---|
| fuqarolardan | – BHMning 70 foizi |
| yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan | – BHMning 10 baravari |

».

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**4-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 16-yanvar
№ O‘RQ—897

Senat qo‘mitasida

# QIZG‘IN BAHSLARGA SABAB BO‘LAYOTGAN HUQUQIY HUJJAT

*Shu kunlarda Oliy Majlis Senati qo‘mitalarida dastlabki tarzda ko‘rib chiqilayotgan “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun ijtimoiy tarmoqlarda keng bahs-munozaralarga sabab bo‘layotganidan xabaringiz bor. Albatta, bu yaxshi. Zero, haqiqat bahslarda tug‘iladi va qonun yanada hayotiy bo‘lishiga zamin yaratadi.*

Kuni kecha mazkur qonun muhokamasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida davom ettirildi.

Unda senatorlar, qo‘mita huzuridagi ekspertlar guruhi a’zolari, soha mutaxassislari, olimlar, Ichki ishlar, Adliya va Raqamli texnologiyalar vazirliklari, Bojxona qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz hamda OAV xodimlari qatnashdi.

Majlisda dastlab qonunning ilk muhokamasi OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalib, munozaralarga sabab bo‘lgani aytib o‘tildi hamda taklif etilgan jurnalistlar savollariga batafsil javob qaytarildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda yurtimizda yo‘l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish bilan bog‘liq tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, haydovchilar va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish, haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, yo‘l harakatining tashkil qilinishini to‘liq raqamlashtirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Tadbirda alohida qayd etilganidek, ayrim haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalariga amal qilmaslik natijasida yo‘l-transport hodisalari soni ortib bormoqda. Masalan, 2023-yilning 11 oyida 8693 ta YTH yuz berib, ularda 2080 nafar inson halok bo‘lgan, 8055 nafari tan jarohati olgan. Mast holda transport vositalarini boshqarish holatlari keyingi yillarda ko‘payib borayotgani ham achchiq haqiqat. Eng achinarlisi, 2023-yilda qariyb 6000 nafar haydovchilar mast holda avtomobil boshqargani uchun ma’muriy javobgarlikka tortilganidan so‘ng ham yana shu xatti-harakatni sodir etgan.

Ishtirokchilar tomonidan aytib o‘tilganidek, o‘tkazilgan o‘rganishlar tahlili yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun amaldagi qonun hujjatlarida ta’sir ko‘rsatuvchi omillar mavjud emasligi va bu bilan jazo muqarrarligi ta’minlanmagani yo‘l-transport hodisalari ko‘payishining asosiy sabablaridan biri bo‘lmoqda.

Muhokamadagi qonun bilan yo‘l harakati xavfsizligiga erishish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, qo‘pol qoidabuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxsning takroran avtomobil boshqarganligi uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish hamda siqilgan tabiiy va suyultirilgan gazda ishlaydigan transport vositalari ishtirokidagi hodisalar bo‘yicha alohida moddalarda ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilash nazarda tutilmoqda.

Mutaxassislar tomonidan shu kabi holatlar inobatga olinib, Jinoyat kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali transport vositasini takroran mast holda boshqarganlik uchun uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo belgilanayotgani aytib o‘tildi.

Majlis davomida jamoatchilikning keng muhokamasiga sabab bo‘layotgan qonun moddalari bo‘yicha jurnalistlar bergan savollarga atroflicha javob qaytarildi.

Yakunda ko‘rilgan masala yuzasidan Senat qo‘mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

## So‘z — tadbir ishtirokchisiga

**Jahongir YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor:**

— So‘z yuritilayotgan qonundagi normalardan biriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga yangi $195^2$-modda kiritilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida olingan foto va videotasvirlarni ularni obro‘sizlantirish maqsadida internet axborot tarmog‘ida joylashtirganlik uchun javobgarlik belgilanayotir. Mazkur xatti-harakatlar uchun jazo chorasi sifatida bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari darajasida jarima yoki o‘n besh sutka muddatga ma’muriy qamoqqa olish nazarda tutilmoqda.

Shu o‘rinda ushbu maxsus normalarning kiritilishini qanday obyektiv zarurat taqozo etdi, degan tabiiy savol tug‘iladi. Huquqni qo‘llash amaliyoti natijalaridan ko‘rish mumkinki, bugungi kunda og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining asosiy sabablari qoidalarni mensimaslik hamda transport vositalarini mast holda boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Qolaversa, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga mas’ul xodimlarning qonuniy talablarini bajarmaslik, ularning xizmat faoliyatiga to‘sqinlik qilish, ular to‘g‘risidagi noto‘g‘ri, noaniq, buzib ko‘rsatilgan ma’lumotni obro‘sizlantirish maqsadida internet tarmoqlariga joylashtirish holatlari kuzatilmoqda.

Alohida aytish joizki, kiritilayotgan qoidalardan asosiy maqsad kimnidir jazolash emas, balki jazoning profilaktik va ogohlantirish funksiyasini yanada kuchaytirishdan iboratdir.

Mazkur normaning quyidagi bir qator muhim jihatlari mavjud:

**birinchidan**, ushbu qoidalar shaxsning erkin axborot olish va tarqatish huquqini cheklashni nazarda tutmaydi, shaxs kelgusida o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari (ularning faoliyati)ni istalgancha foto va videotasvirga olishi mumkin;

**ikkinchidan**, mazkur qonun normasi bilan har qanday hollarda emas, balki xizmat olib borayotgan xodimni obro‘sizlantirish maqsadida internet tarmog‘iga joylagandagina tegishli javobgarlik yuzaga keladi;

**uchinchidan**, javobgarlik yuzaga kelishi uchun joylanayotgan axborotlar yolg‘on, noaniq yoki buzib ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Aks holda bu modda talqin qilinmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, qonunni ishlab chiqish jarayonida bir qator rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi ham hisobga olinadi.

**“Xalq so‘zi”.**

# ATMOSFERA HAVOSI MUHOFAZASI — DEPUTATLAR NAZORATIDA



1

Qo‘shma yig‘ilishda deputatlar atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikning amalda rioya etilishi masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Aytildiki, 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar va Harakatlar strategiyasi talablaridan kelib chiqib tubdan takomillashtirildi. Jumladan, bu yo‘nalishdagi qonunchilikning asosiy vazifalari qayta ko‘rib chiqildi, shuningdek, fuqarolarning shu sohadagi huquq va majburiyatlari aniq belgilab berildi.

O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda mazkur qonunni hayotga tatbiq qilish bo‘yicha muayyan ishlar bajarilgan. Xususan, fuqarolarning atmosfera havosining holati hamda uning muhofazasi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tegishli davlat organlaridan ishonchli axborot olish huquqlari ta’minlanmoqda. Yo‘nalishdagi standartlar, atmosfera havosi sifati normativlari va boshqa qator me’yorlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Yig‘ilish ishtirokchilari oxirgi paytlarda mamlakatimizda, shu jumladan, poytaxt Toshkent shahrida havo ifloslanib borayotgani, bu holatning kelib chiqish sabablari va ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar haqida alohida to‘xtaldilar.

Bugungi kunda butun dunyoda iqlim o‘zgarishlari natijasida bir qator ekologik muammolar — cho‘llanish darajasi ortayotgani, biologik xilmaxillikning kamayishi, suv resurslarining qisqarishi, chiqindilarning ortib borishi kuzatilmoqda. Buning natijasida atmosfera havosining bulg‘anishi bilan bog‘liq ekologik muammo kun tartibiga chiqayotgani mutaxassislar tomonidan qayd etildi.

Sanoat tashlamalarining aniq hisobini yuritish maqsadida “Tarmoq jadvali” asosida atmosfera havosiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi 44 ta sanoat korxonasida 69 ta avtomat stansiyasi hamda 27 ta turg‘un kuzatish punkti o‘rnatilgani, 2023-yilda 147 ta sanoat korxonasidagi chang-gazlarni tutib qoluvchi 716 ta uskuna modernizatsiya qilinib, havoga 10 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi moddalar tashlanishining oldi olingani ta’kidlandi.

Yig‘ilishda atmosfera havosini muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning ijro etilish holatini doimiy o‘rganib borish, bu boradagi parlament nazoratini yanada kuchaytirish, ushbu jarayonda jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar haqida aholiga axborot yetkazishning shaffofligini kafolatlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni tatbiq qilish lozimligi qayd etildi.

Yig‘ilish yakunida deputatlar ishtirokida ishchi guruh tuzish, atmosfera havosiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektlar misolida o‘rganishlar o‘tkazishga kelishib olindi.

## So‘z — ishtirokchilarga

**O‘ktam ISLOMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

— Ekologiya barqarorligini ta’minlash hamda havoning ifloslanishiga qarshi kurashish masalasi barcha davlat organlari, qolaversa, har birimizning zimmamizdagi dolzarb masala. Yig‘ilishda mas’ul vazirlik tomonidan bu borada olib borilgan tahlillar aytib o‘tildi. Shulardan kelib chiqib fikr bildiradigan bo‘lsam, aytish mumkinki, har qanday muammoni yechish uchun, eng avvalo, mavjud holatni, uning sababini bilishimiz kerak. Bugun atmosfera havosining ifloslanishi butun dunyodagi global muammo bo‘lib, bu holat, asosan, kimyo zavodlari masalasi bilan bog‘liqligini namoyon etadi. To‘g‘ri, ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini rivojlantirish muhim, shu bilan birga, ular chiqaradigan zararlarni kamaytirish, buning uchun zarur moslamalarni o‘rnatish maqsadga muvofiq. Yig‘ilishda transport vositalari va ularning havoga yetkazayotgan zararlari bo‘yicha ayrim ma’lumotlar keltirildi. Nazarimda, bu boradagi tahlillarni aniq olib borish lozim. Transport vositalarini cheklash borasida juda ehtiyot bo‘lish kerak. Avtomobillarning harakatlanishi iqtisodiyotning drayveri hisoblanadi. Harakatni to‘xtatish iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu borada muqobil variantlarni ishlab chiqib, keyin tartibga solish maqsadga muvofiq.

**Zikrilla ALIMOV,
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining atmosfera havosini muhofaza qilish laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori:**

— Qonunchilik palatasida atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda deputatlar, olimlar, tegishli vazirlik mas’ullari ishtirok etib, o‘z tavsiyalarini berdi. Dunyoda dolzarb bo‘lib turgan masalaning parlament darajasida ko‘rilishi, albatta, bizni quvontiradi.

Yig‘ilishda asosiy e’tibor ko‘proq atmosferadagi o‘zgarishlarni, uning tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarni o‘rganish va uning manbalariga alohida e’tibor berishga qaratildi. Bundan tashqari, jamoat transportini rivojlantirish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish kabi bir qancha takliflar ilgari surildi. Bularning amalga oshirilishi, albatta, o‘z natijasini beradi.

Aytish joizki, atmosfera havosining ifloslanishi bugungi kunda yoki yaqin yillarda paydo bo‘lgan muammo emas, balki uning kelib chiqishining bir qancha sabablari bor. Asosiy taklifimiz asosida atmosferadagi PM-2,5 va undan yuqori bo‘lgan zarrachalarning insonga va atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish va ularning manbalarini aniqlash hamda mavjud zararli holatni kamaytirishga oid texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilyapti. Tadqiqot ishlari o‘z samarasini beradi, deb umid qilamiz.

**“Xalq so‘zi”.**

Dolzarb mavzu

# IJOBIY NATIJALAR BOR, AMMO...

*Zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Yangi O‘zbekiston bu jarayonda dunyo hamjamiyatiga dadillik bilan integratsiyalashib borayotgani barchamizni quvontiradi. Avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy sohaga ilg‘or xalqaro tajriba kirib kelmoqda, davlat tizimlarida ochiqlik va boshqaruvda xalqning faol ishtiroki kuzatilmoqda.*

Bu yaxshi, albatta. Ammo rivojlanishimizga to‘siq bo‘layotgan ayrim qusurlar ham uchrab turibdiki, bu o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘lagan hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Ulardan biri — korrupsiya. Ba’zan poraxo‘rlik, uyushgan jinoyatchilikning davlat xizmatiga kirib kelishi, sudlov tizimida adolat buzilishi, xufiyona iqtisodiyot misolida zohir bo‘layotgan ko‘rinishlari taraqqiyotga tushov ekani, aholi o‘rtasida davlat haqida salbiy fikrlar uyg‘otishga olib kelayotgani ham achchiq haqiqat.

Shu ma’noda, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga qarshi keskin kurash olib bormas ekanmiz, oliy maqsad ro‘yobi qiyinlashib boraveradi. To‘g‘ri, korrupsiyani yo‘qotish hech bir davlat uchun oson kechmagan. Bizda ham bu masala silliq ketayotgani yo‘q. Ayniqsa, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bank muassasalari, boshqa qator sohalar, ayrim davlat xizmatchilari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarning uchrayotganligi bu illatga qarshi kurashni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bunda ishni birgina huquq-tartibot idoralari zimmasiga yuklab qo‘yish bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Avvalo, qayta-qayta aytilayotganidek, jamoatchilik o‘rtasida unga nisbatan toqatsizlik tuyg‘usini shakllantirib, tamagirlik, “sendan ugina, mendan bugina” qabilidagi biror holat jazosiz qolmasligi haqidagi oddiy haqiqatni har bir kishi ongiga singdirish muhim.

Xo‘sh, Namangan viloyatida ushbu masalaga qay tartibda yondashilmoqda? Joylarda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ahvoli qay darajada?

Birgina o‘tgan yilda ro‘yxatga olingan 1682 ta iqtisodiy jinoyatning 153 tasi poraxo‘rlik bilan bog‘liq ekanligi manzaraga birmuncha oydinlik kiritadi. Ammo ko‘rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 115 taga kamaygan bo‘lsa-da, bu xotirjamlikka asos bo‘lmaydi. Negaki, xalqimizning andishaliligi sabab oshkor etilmayotgan oldi-berdi ko‘rinishidagi tamagirliklarning qanchasi ochilmasdan qolib ketayotgani ham bor gap.

Ma’lumki, Prezident Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy komissiyalari O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va viloyatlarda hududiy kengashlar etib qayta tashkil qilindi. Shu tartibda Namanganda 38 nafar faoldan iborat kengash faoliyat ko‘rsatmoqda. Qolaversa, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzurida tarkibiga 7 nafar deputat kiritilgan Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya ish olib borayotir.

O‘tgan yilda bu kengash o‘z rejasidan kelib chiqib, 54 nafar mutasaddi va mansabdor shaxsning ayni masala bo‘yicha hisobotini eshitdi. Doimiy komissiyada ham bunday eshitishlardan tashqari davlat muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, xizmat sohalarida o‘rganishlar olib borilyapti.

Aytish kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashda ham sodir etilgan jinoyat oqibatlaridan ko‘ra uning oldini olish, demak, profilaktika, xususan, targ‘ibot tadbirlariga urg‘u berish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, joylarda mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali vositalarni o‘rnatish, mehnat jamoalari, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida uchrashuv va suhbatlar uyushtirish, sodir qilingan jinoyatlar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar tashkil etish uslublaridan keng foydalanyapmiz.

“Korrupsiyaning salbiy oqibatlari” mavzuida tayyorlangan qisqa metrajli videoroliklar viloyat bo‘yicha 44 ta “Led” monitorida muntazam ravishda namoyish etib borilayotganligi ham o‘z samarasini bermoqda. 244 ta tashqi reklama obyekti ustuniga va 126 ta boshqarma hamda idoraning kirish qismlari va aholi ko‘p tashrif buyuradigan 24 ta maskanga korrupsiyaga qarshi kurashga chorlovchi pannolar o‘rnatilgani targ‘ibot ishlari ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilayotganini aytish o‘rinlidir.

Ammo adolat bilan aytadigan bo‘lsak, bu sa’y-harakatlarning o‘zi kam. Qachonki, biz birgalikda harakat qilmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisha olmaymiz.

Deylik, bolalar bog‘chasi mudirasi yoki lavozimdagi shifokor ishga kirmoqchi bo‘lgan mutaxassisdan biror nima undirib qolish ilinjida, xalqqa naf keltiradigan loyiha ijrosiga kredit so‘ragan tadbirkorning cho‘ntagiga ko‘z tikkan bankir yoki yo‘lsozlik tashkiloti mutasaddisi ko‘chani asfalt qildirishni so‘rab kelgan mahalla oqsoqolidan “soqqa” qilish dardida. Bularning barchasini bilamiz, ammo fikrimizni aytmaymiz. Yana o‘sha andisha va befarqlik. Yoki pora talab qilinayotgan fuqaro noqonuniy ish bo‘layotgani to‘g‘risida chaynalib gapiradi, bu haqda yozib bering, desangiz, keling, shu gap mendan chiqmasin, deydi. Bu bilan o‘zimiz ham korrupsiyaning yanada battar urchishiga yo‘l ochib bermayapmizmi?..

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoni aholining huquqiy savodxonligini oshirishga ko‘p jihatdan bog‘liq ekan. Korrupsiyaga qarshi yoshu qari ma’rifat bilan kurashsagina, jinoyatning ildizini quritishga erisha olamiz.

**Musoxon OPPOQOV,
xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi deputati.**

# “YASHIL ENERGIYA” SERTIFIKATLARINI JORIY ETISH BELGILANMOQDA

*Global rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari sharoitida energiyaga bo‘lgan talabning ortishi, uglevodorod xomashyosi zaxiralarining kamayib borayotgani, energiya olish maqsadlarida atrof-muhitning ifloslanishi ko‘pgina davlatlar qatori mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energetika sohasini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatyapti.*

Yangi qonun

Yurtimizda keyingi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, xususan, quyosh, shamol va suv oqimlari energiyasidan foydalanish hamda rivojlantirish, iste’molchilarni muqobil energiyaga o‘tkazish va tejamkor texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganining sababi ham shunda.

Bugun mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari va aholi tomonidan elektr energiyaga bo‘lgan talab 83 mlrd. kVt-soatga yetdi. Tahlillarga ko‘ra, 2030-yilga qadar iqtisodiyotning barcha tarmog‘i jadal rivojlanishini inobatga olgan holda, elektr energiyaga talab qo‘shimcha 40 mlrd. kVt-soatga oshishi kutilmoqda.

Sohada bozor munosabatlarini keng joriy etish, xususan, xususiy sektor, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga o‘tish borasida yirik islohotlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatlarda olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari salmog‘i umumiy energetika ishlab chiqarish tizimida 8 foizga yetkazildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatda sohani rivojlantirish, asosan, chet el investitsiyasi hisobiga qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yirik ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish orqali amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ko‘p sonli aholi va tadbirkorlik subyektlarida kichik quvvatli qurilmalarni hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ishlari ham davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanyapti.

Xususan, jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o‘rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o‘z iste’molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat budjetidan 1 000 so‘mdan subsidiya ajratish instituti joriy etildi. Ammo ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay kichik quvvatlarni rivojlantirishda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi, aholining bu borada faolligi sezilmayapti. Shu bois mamlakatimizda kichik quvvatlardagi qayta tiklanuvchi energetika rivoji boshqa davlatlar ko‘rsatkichlariga nisbatan past darajada qolmoqda.

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yanada rivojlantirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasida bu borada muhim yangiliklar o‘rin olgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 26-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan majlisida deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilib, qabul qilingan va Senatga yuborilgan qonun bilan amaldagi qonunchilikka “yashil energiya” sertifikatlari tushunchasini kiritish hamda bunday sertifikatlarni berish va muomalaga kiritish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi elektron hujjat “yashil energiya” sertifikati sifatida qayd etilishi taklif qilinyapti. Quvvati 300 kVt va undan yuqori bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi tizimiga ulash maxsus vakolatli davlat organida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyingina amalga oshirilishi ham ushbu qonunda belgilanayotir.

Bundan tashqari, Soliq kodeksiga “yashil energiya” sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlar foyda solig‘idan ozod etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilmoqda. Bu esa bugungi global rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari sharoitida mamlakatda “iqlimiy moliyalashtirish” mexanizmlari joriy etilayotganidan yana bir bor dalolatdir.

Sirasini aytganda, ushbu qonun uy-joy kommunal sohalar va iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishga hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini qo‘llaydigan investorlar uchun qulay iqtisodiy imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.

Umuman, “yashil” energetika sohasini rivojlantirishda “yashil energiya” sertifikatlari institutini faol joriy etish muhim iqtisodiy mexanizm bo‘lib, ushbu huquqiy norma ekologik toza energiya ishlab chiqaruvchilarni yanada rag‘batlantirishda va pirovardida mamlakatimizning energetika xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

**Islom XUSHVAQTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# GLOBAL ILLATGA QARSHI KURASH



## JAHON HAMJAMIYATI E'TIBORIDA

*Koʻzga koʻrinmas illat — korrupsiya kishilik jamiyatining barcha jabhasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Binobarin, u mamlakatlar iqtisodiy rivojiga toʻsiq boʻladi, inson huquqlarini taʼminlashga monelik qilib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi.*

*Bugungi kunda ushbu jirkanch illatga qarshi birgina yurtimizda emas, mintaqaviy va global integratsiyalashgan holda mamlakatlar yetakchilari ham faol kurashmoqda. Bu ezgu yoʻlda qoʻshma dasturlar asosida unga barham berish uchun istiqbolli chora-tadbirlar hayotga joriy qilinmoqda. Korrupsiyaning oldini olish, oshkoralikni taʼminlash va jamoatchilik institutlarini mustahkamlash Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.*

### Bugunning gapi

### Korrupsiyaning rivojlanishi nimalarga olib keladi?

Ana shu mintaqaviy va global integratsiyalashuv doirasida Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy tashabbusi bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha mukofot taʼsis etilgan boʻlib, 2023-yil 19-dekabrda oliy darajadagi mehmon amaliy tashrif bilan Toshkentda boʻlganida ana shu mukofotlarni topshirish marosimida qatnashdi.

Tadbirda xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi saʼy-harakatlarini ifodalovchi monumentning ochilishi, unda BMT Bosh kotibining yordamchisi Aleksandr Zuyev, xorijiy mamlakatlardan kelgan delegatsiyalar, ekspert va OAV vakillarining ishtirok etishi bu global illat jahon hamjamiyati tomonidan institutsional oʻrganilayotganini, unga qarshi xalqaro ittifoqlashgan holda kurashilayotganini tasdiqlaydi.

Davlatimiz rahbari Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida nutq soʻzlab, tantanali tadbirni Oʻzbekistonda oʻtkazish boʻyicha taklif va yaqindan koʻrsatgan koʻmagi uchun mazkur nufuzli mukofot asoschisi — Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy hamda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Noaniq, beqaror va shiddat bilan oʻzgarayotgan jahondagi oʻtkir muammolardan biri boʻlgan korrupsiya mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining asosiy toʻsigʻi ekani, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida global mukofotning taʼsis etilgani va uni topshirishga bagʻishlangan marosimlar barcha qitʼalarda oʻtkazib kelinayotgani sof vijdonli har bir insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchi ekanini eslatishi taʼkidlandi.

Bugungi kunda korrupsiyaning dunyo mamlakatlariga yetkazayotgan zarar miqdori 3 trillion AQSH dollariga yaqin ekani, lekin bu raqamlar ham haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida koʻrilayotgan real zararlarning aniq hajmini toʻliq ifoda etishi qiyinligi aytildi.

### Umumbashariy maqsadlar

Taʼkidlash joizki, globallashuv sharoitida insoniyat farovonligi va uning hayotiga tahdid soladigan bir qator jiddiy muammolar mavjud boʻlib, ularning aksariyati qaysidir maʼnoda korrupsiya muammosi bilan bogʻliq boʻlib qolmoqda.



Odatda, korrupsiya nafaqat iqtisodiy tanazzul, balki jamiyat inqirozining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaning avj olishi insoniy tuygʻularni kemirish bilan birga, ijtimoiy jihatdan jamiyatda aholining kambagʻal qatlamini koʻpaytiradi, qashshoqlikni kuchaytiradi. Global miqyosda korrupsiyaning gazak olishi esa fuqarolar huquqlarining poymol boʻlishiga, maʼmuriy buyruqbozlikning kuchayishiga olib keladi. Bunda maʼlum imtiyozga ega boʻlgan qatlam mamlakat resurslaridan oʻz mulkiday noqonuniy foydalanadi, oʻziga boʻysunmaganlarni qoʻrquv va tahdid iskanjasida saqlab turadi, hatto qurolli mojarolarni moliyalashtirishi, kuchaytirishi, shu orqali tinchlik jarayonlariga raxna solishi mumkin.

Dunyo mamlakatlarida bunday jinoyatlarga qarshi kurashishga har bir insonning huquqi va burchi sifatida qaralmoqda. Oʻz haq-huquqini bilgan va idrok qilgan har bir shaxs, mulkchilik koʻrinishidan qatʼi nazar, barcha mehnat jamoalari ishtirokidagina korrupsiyaga qarshi kurashish oʻz natijasini berishi mumkinligi targʻib qilinmoqda. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashda mamlakatlar, davlat amaldorlari va xizmatchilari, huquq-tartibot idoralari xodimlari, ommaviy axborot vositalari, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar, jamoatchilik va yoshlar birlashishi kerak, degan umumbashariy maqsadlar ilgari surilmoqda.

2023-yilda ushbu illatga qarshi kurashda samarali vosita boʻlgan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qabul qilinganining 20 yilligi keng nishonlandi. BMT Bosh Assambleyasi 2003-yil 31-oktabrda mazkur konvensiyani qabul qilgan edi. Oʻshandan buyon 190 davlat korrupsiyaga qarshi majburiyatlarni zimmasiga oldi va bu ijobiy boshqaruv oʻz natijasini bera boshladi. Assambleya, shuningdek, korrupsiya muammosi va konvensiyaning unga qarshi kurashishdagi rolini chuqurroq tushuntirish maqsadida 9-dekabrni "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni" sifatida belgilash toʻgʻrisida qaror qabul qildi.

Konvensiyada koʻrsatilgan tamoyillar kishilik jamiyatidan korrupsiyaga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirishni talab etadi. Shuning uchun BMTning Taraqqiyot dasturi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi hamda ishtirokchi davlatlar konferensiyasi kotibiyati bu illatga qarshi kurashni qoʻllab-quvvatlab keladi.

### Har bir soha zamirida ilm boʻlishi kerak

Yangi Oʻzbekiston oʻz strategiyalarida korrupsiya oqibatlarini chuqur anglagan holda BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilayotgani fikrimiz dalilidir.

2017-yil 3-yanvarda Oʻzbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi Qonuni qabul qilinib, bosqichli tarzda maxsus vakolatli agentlik tashkil etildi. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkoraligini taʼminlash, mulozimlar masʼuliyatini oshirish, byurokratiyani kamaytirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga joriy etila boshlandi.

Davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, har bir sohani rivojlantirish uchun uning zamirida ilm boʻlishi, ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi uzoq istiqbolni belgilab beradi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish ham huquqiy va institutsional islohotlarni tizimli amalga oshirishni talab etadi. Bu borada oʻtgan yetti yilda Yangi Oʻzbekiston strategiyasi, real va ijtimoiy davlatchilik prinsiplari asosida ulkan islohotlar qilindi.

Oʻzbekiston davlat boshqaruvi va ijro hokimiyatlari uzluksiz tarzda onlayn, yaʼni raqamlashtirilgan ishlash dasturlariga oʻtkazildi. Dastlab Prezident virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, Sall-markaz va davlat hamda xususiy sektorlarda "ishonch telefonlari" joriy qilindi. Tashkilotlar, korxonalar va boshqa idoralarga onlayn platformalar orqali tanlov asosida ishga qabul qilish usuliga oʻtildi. Maktabgacha taʼlim, maktab va oliy taʼlimga oʻqishga qabul qilish hamda hujjat topshirish jarayonlari ham raqamlashtirildi. Bunda taʼlim olishga ishtiyoqi boʻlgan yoshlar uchun uyali telefon yordamida roʻyxatdan oʻtkazish xizmati jadal joriy qilindi va jarayonda inson omili ishtiroki kamaytirildi. Savdo birjalarida elektron xaridlar doʻkonlari ochilib, mahsulotlarning onlayn savdosi tatbiq etildi.

Ilgari ota-onalar farzandining oʻqishga kirishi uchun turli yoʻllarni axtarib, firibgarlarga chuv tushgan holatlar juda koʻplab sodir boʻlib turardi. Bu, avvalo, odamlarning oʻz haq-huquqini bilmasligidan, dunyoqarashida "Farzandim oʻqishga kirishi uchun pul berish kerak" deganga oʻxshash illatlar palak yozib ketganligidan dalolat edi. Bu nafaqat taʼlim tizimida, balki barcha sohada odatiy holga aylanib qolgandi.

Davlatimiz rahbarining virtual qabulxonasi orqali har qanday fuqaro Prezidentga murojaat etishi mumkinligi barcha infratuzilmalarda keskin ijobiy yondashuvni hosil qilib, xalqda demokratiya va soʻz erkinligiga ishonch uygʻotdi.

Natijada korrupsiya botqogʻiga botayotgan ayrim amaldorlar, davlat xizmatchilari oʻzini oʻzi nazorat qilishga, korrupsiyadan tiyilishga majbur boʻldi. Prezident qoʻllovi bilan jamiyatda korrupsiyaga murosasizlik va toqatsizlik koʻnikmalari shakllana boshladi.

### BMT dasturi Oʻzbekistonda keng qoʻllaniladi

Mamlakatimizda nafaqat ichki jarayonlarda korrupsiyaga barham berish, balki shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy, fan-taʼlim, ishlab chiqarish sohalarini jadallashtirish, pirovardida yetarli qoʻshimcha qiymat yaratish maqsadida ulkan huquqiy islohotlar olib borilmoqda.

Oʻzbekiston 2021-yilda Xalqaro ochiq maʼlumotlar xartiyasiga qoʻshildi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari, boshqa koʻplab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. Gʻarbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmogʻining Kotibiyati vazifasini bajarmoqda. Har yili Toshkentda anʼanaviy Xalqaro aksilkorrupsiya forumi oʻtkazib kelinyapti.

Bugungi kunda mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42-oʻrinda, "Open Data Inventory" reytingida 30-oʻrinda. Bu mintaqamizda eng yuqori koʻrsatkichlardir. 2030-yilga qadar mazkur reytinglarda yanada yuqori pogʻonaga koʻtarilish uchun saʼy-harakatlar koʻrilmoqda.

Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi institutsional kurashning dolzarbligi boʻyicha qator maqsad-vazifalarni sanab oʻtdi. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish ochiq maʼlumotlar jarayoniga yanada kengroq oʻtish va 2030-yilgacha moʻljallangan milliy strategiyani ishlab chiqish, 2023-yil noyabr oyida Toshkentda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining mintaqaviy platformasidan keng foydalangan va nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalb qilgan holda, oʻzaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida Korrupsiya muammolari boʻyicha mintaqaviy tadqiqot markazini ochish taklif etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini xorijiy turdosh muassasalar bilan integratsiyalashtirish, ilgʻor xalqaro tajriba asosida korrupsiya holatlari boʻyicha "dastlabki oʻrganish" — korrupsion surishtiruv institutini joriy etish, ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazishda BMTning Korrupsiyaga qarshi taʼlim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini Oʻzbekistonda keng qoʻllash gʻoyasi ilgari surildi. Bu tuban illatga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining oʻrnini yanada oshirish uchun Global media forumini oʻtkazish takliflari berildi.

### Oʻzbekiston va Qatar iqtisodiy hamkorligi yangi bosqichda

Oʻrni kelganda taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston va Qatar iqtisodiy hamkorligi yangi bosqichda konstruktiv rivojlanmoqda. 2022-yilda ikki davlat oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar boʻyicha oʻzaro savdo hajmi 4,8 million dollarni, 2023-yil yanvar — avgust oylaridagi oʻzaro savdo aylanmasi hajmi 4,5 million dollarni tashkil etgan. Bu ulkan sarmoyalar negizida raqamlashtirish platformalari, "yashil" energetika, neft kimyosi, metallarni chuqur qayta ishlash, qishloq xoʻjaligi, qurilish, turizm, moliya va boshqa sohalar boʻyicha ikki tomonlama uzoq yillik kelishuvlar mavjud.

Ayni chogʻda tobora dolzarb boʻlib borayotgan biotexnologiya va sunʼiy intellekt sohasidagi qoʻshma tadqiqotlar rejalariga alohida eʼtibor qaratilishi sababli hamkorlik samaralari innovatsion boshqaruvga oʻtish imkonini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy darajadagi marosimda ikki mamlakat oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, davlatimiz rahbari 2023-yilda Toshkent va Doha shaharlarida ikki mamlakat diplomatik vakolatxonalari ochilganini, savdo hajmi oshganini, Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik loyihalar boshlanganini alohida eʼtirof etdi.

Shu nuqtayi nazardan, keng koʻlamli institutsional korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat ikki mamlakat oʻrtasidagi istiqbolli ulkan sarmoyalarni, balki mamlakatimiz tashqi siyosatidagi umumiy jozibador investitsiyaviy jarayonlarni va uni joriy qilishdagi ishonchli taraqqiyotni kafolatlaydi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va kooperatsiyalarning kengayishi yuqori daromadli qoʻshimcha qiymat yaratishdagi koʻlamning kengayishiga, xalqimizning munosib turmush tarzi, farovonligi oshishiga yoʻl ochadi.

**Qoʻngʻirotboy SHARIPOV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori.**

## OʻZBEKISTON — TARIX KITOBINING OʻZIGA XOS SAHIFASI

1

Muallifning yozishicha, UNESCO tomonidan "Markaziy Osiyodagi Oʻrta asrlar shahrining eng toʻliq namunasi" sifatida tan olingan Buxoroda oʻsha davrning eng qiziqarli yodgorliklari joylashgan. Buxoroning tarixiy markazi ixcham boʻlib, uni piyoda aylanib chiqish mumkin.

"Oʻz navbatida, 2500-yildan ortiq tarixga ega boʻlgan Samarqand qadimiy obidalar va zamonaviy shaharning ajoyib uygʻunligidir, — davom etadi muallif. — Diqqatga sazovor joylarni koʻrishni Shohi Zinda ansamblidan boshlashni, Amir Temur maqbarasiga borish va Registon maydonida tugatishni tavsiya qilamiz".

Nashrda qayd etilganidek, oʻzbek milliy taomi — palovni tatib koʻrmasdan Oʻzbekistondan ketmaslik kerak.

"Oʻzbekiston oʻzining boy madaniy merosi va mehmondoʻstligi bilan hayratga soladigan davlatdir. Bu yerdagi har bir shahar ajoyib kashfiyotlar va unutilmas tajribalarga toʻla tarix kitobining oʻziga xos sahifasi hisoblanadi".

**"Dunyo" AA.**
Vashington

## MALAYZIYADA "GOʻZAL OʻZBEKISTON" YANGI SAYYOHLIK YOʻNALISHI TAQDIMOTI

*Shu yil 10 — 14-yanvar kunlari Kuala-Lumpur shahridagi yirik savdo-koʻngilochar majmualardan biri — "One Utama" markazida "Apple Roadshow 2024" sayyor koʻrgazmasi boʻlib oʻtdi.*




Malayziyaning yirik turkompaniyasi — "Apple Vacations" tomonidan tashkil etilgan mazkur koʻrgazma doirasida Oʻzbekistonning Malayziyadagi elchixonasi koʻmagida mamlakatimiz turizm salohiyatiga bagʻishlangan taqdimotlar oʻtkazildi. Ishtirokchilarga Oʻzbekistonda zamonaviy sayyohlik xizmatlari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan keng koʻlamli chora-tadbirlar haqida batafsil maʼlumot berildi.

Xususan, ikki mamlakat oʻrtasidagi "Uzbekistan Airways" AJ va "Batik Air Malaysia" aviakompaniyasining toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlari, yurtimizning asosiy tarixiy shaharlarini bogʻlovchi "Afrosiyob" tezyurar poyezdlar tizimi sayyohlarga katta qulayliklar yaratayotgani taʼkidlandi. Shuningdek, Malayziya fuqarolari uchun Oʻzbekistonga vizasiz kirish tartibi amal qilayotgani alohida taʼkidlab oʻtildi.

Tadbir doirasida "Apple Vacations" turkompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarini oʻz ichiga olgan "Goʻzal Oʻzbekiston" nomli yangi sayyohlik dasturi keng ommaga taqdim qilindi. Dastur doirasida birinchi sayyohlar guruhini joriy yil may oyidan boshlab mamlakatimizga yuborish toʻgʻrisida kelishuvga erishildi.

Sayyor koʻrgazmada taqdim etilgan Oʻzbekistonning tarixiy va zamonaviy sayyohlik markazlari, boy madaniyati, betakror arxitekturasi, gastronomik sanʼati, milliy anʼanalari ishtirokchilarda katta qiziqish uygʻotdi.

Aytish joizki, "Apple Vacations" kompaniyasi Malayziyaning yirik sayyohlik muassasalaridan biri hisoblanadi. Uning tarkibida Osiyo, Yevropa va Amerika qitʼalari, musulmon mamlakatlari hamda ishbilarmonlik turizmi (MICE tourism), dengiz sayohatlari yoʻnalishlarida 40 dan ortiq turagentliklar faoliyat yuritadi.

**"Dunyo" AA.**
Kuala-Lumpur

### Tashabbus

## YAPONIYADAGI VATANDOSH AYOLLAR MASLAHAT KENGASHI TUZILDI

*Oʻzbekistonning Yaponiyadagi elchixonasida faol, olima va tadbirkor vatandosh xotin-qizlar ishtirokida gibrid shaklida uchrashuv oʻtkazilib, diplomatik vakolatxona qoshida Yaponiyadagi vatandosh ayollar maslahat kengashi tashkil etildi.*

Tadbir avvalida mamlakatimiz elchisi Muhsinxoʻja Abdurahmonov soʻzga chiqib, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarda oʻz qobiliyati va imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ragʻbatlantirish borasida tizimli ishlar olib borilayotganligini taʼkidladi.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish hamda gender tenglikni taʼminlashga qaratilgan bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilinganligi alohida urgʻulandi.

Shu bilan birga, tadbir qatnashchilariga xorijda yashayotgan vatandosh xotin-qizlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizni moddiy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash hamda ularga zarur axborot-maslahat va huquqiy yordam koʻrsatish koʻlamini kengaytirish boʻyicha hamkorlikda ishlar tashkil qilish lozimligi bildirildi.

"Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruvi raisi Odiljon Sattorov oʻzbekistonlik vatandosh xotin-qizlar kengashi aʼzolarining asosiy vazifalari haqida batafsil maʼlumot berdi. Shuningdek, fond Yaponiyadagi vatandoshlar bilan hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga tayyorligini maʼlum qildi.

Tadbirda Yaponiyadagi vatandosh ayollar maslahat kengashi raisligiga Tokio chet tillar universiteti dotsenti, yurist Mohinur Turdiaxunovaning nomzodi maʼqullandi.

Uchrashuv yakunida ishtirokchilar tomonidan kengash faoliyatini yoʻlga qoʻyish va istiqboldagi rejalar boʻyicha oʻzaro fikr almashildi hamda yurtimizdagi mutasaddi idoralar bilan yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi.



**"Dunyo" AA.**
Tokio

### Sanoat

## INVESTISIYAVIY LOYIHA AMALGA OSHIRILMOQDA

*Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 5 ta boyitish fabrikasi mavjud, ayni paytda maʼdan tarkibida oltin hajmi boʻyicha yirik boʻlishi kutilayotgan "Yoshlik-1" konini oʻzlashtirish investitsiyaviy loyihasi amalga oshirilmoqda. Maʼdanlarni boyitish jarayonlari uchun esa mavjud fabrikalardan bir necha barobar yuqori quvvatlarda ishlashi rejalashtirilgan yana bir majmua qurilyapti. Bu 3-mis boyitish fabrikasidir. U nafaqat yirikligi, balki toʻliq avtomatlashtirilgani bilan katta ahamiyatga ega. Ayni paytda sexlarga texnologik uskunalarni oʻrnatish yumushlari ham qizgʻin olib borilayotir.*

Hozirgi kunda 3-mis boyitish fabrikasiga elektr bilan taʼminlovchi uskunalar ham oʻrnatila boshlandi. Fabrika bosh energetigi Otabek Turdiboyevning maʼlum qilishicha, elektr taʼminoti umumiy quvvati 465 MVt boʻlib, bu yerda uchta bosh pasaytiruvchi nimstansiya mavjud. Ushbu nimstansiyalarga 8 dona 100 MVt va 2 dona 63 megavattli xorijiy kompaniyalarda ishlab chiqarilgan transformatorlar oʻrnatilishi koʻzda tutilgan.

Eʼtiborlisi, fabrikaning asosiy sexlari dunyoning yetakchi kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan uskunalar bilan jihozlanmoqda. Jumladan, valokli maydalagichlar uchun quvvati 3450 kVt, biserli tegirmonlar uchun quvvati 1800 kVt hamda boʻtana nasoslari uchun quvvati 1200 kVt boʻlgan, yirik va oʻrta maydalagichlar uchun quvvati 800 kVt va 8000 kVt boʻlgan elektrodvigatellar olib kelindi va oʻrnatishga tayyor.

Kelgusida 3-mis boyitish fabrikasida muqobil energiya ishlab chiqarish manbalaridan foydalanish ham koʻzda tutilgan. Fabrikaning asosiy energiya boʻlimini bosqichma-bosqich ishga tushirishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, energetika sexi hamda boshqa asosiy sexlarda alohida xizmatlar tashkil etilib, ish faoliyati jadal surʼatlarda olib borilyapti.

Majmua qurilishida 23 ming ishchi va xodim mehnat qilmoqda, 500 dan ortiq maxsus texnikalar kuchidan unumli foydalanilyapti. "Yoshlik-1" koni va 3-mis boyitish fabrikasi qurib bitkazilgach 6 mingdan ziyod yangi ish oʻrinlari yaratiladi. Shuningdek, Davlat budjetiga yiliga qoʻshimcha 300 mln. dollarga teng soliq tushumlari toʻlanib, eksportga mahsulot chiqarish hajmi 500 mln. dollardan oshadi.

**Faxriddin BOZOROV**
**("Xalq soʻzi").**

# MARKAZ YANGI BINODA FAOLIYAT BOSHLADI

*Ijtimoiy himoya milliy agentligi Samarqand viloyati boshqarmasining Jomboy tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi yangi binoda faoliyat boshladi.*

## Qulaylik

Bu yerda xodimlar va fuqarolar uchun barcha qulaylik yaratilgan. Jumladan, kutish zalida o‘rindiqlar, bolalar maydonchasi, tibbiyot xonasi mavjud.

Majmuaning ochilish marosimida Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati, bundan kutilayotgan natija va samaralar haqida so‘z yuritildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda tumanda “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan 81 nafar yakka-yolg‘iz keksa, 4 ming nafardan ziyod nogironligi bo‘lgan fuqarolar istiqomat qiladi. Endilikda bu shaxslarning hayoti, muammolari bilan mahallalarga biriktirilgan ijtimoiy xodimlar shug‘ullanadi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi orqali davlat tomonidan ajratilayotgan nafaqa va moddiy yordamning ehtiyojmand aholiga yetib borishi ta’minlanadi.

Bugungi kunda markazda 21 nafar xodim ish yuritmoqda. Shuningdek, yaqin kunlarda har ikki mahalla uchun bir nafardan ijtimoiy xizmatni tashkil etish xodimlari ish boshlashi kutilmoqda.

Yangi binodagi markazda besh turdagi, ya’ni mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish, ijtimoiy to‘lovlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, katta yoshdagi va og‘ir vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash hamda bolalarni ijtimoiy himoya qilish shu’balarida aholiga sifatli xizmat ko‘rsatiladi.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# SIFATNI YAXSHILASH DASTURI ISHGA TUSHIRILDI

*O‘zbekistonda ilk bor ijrosiga kirishilgan mazkur loyiha ishlab chiqarilayotgan birinchi guruhga oid bazaviy moylar sifatini yaxshilash va ularni Yevropa standartlariga yetkazish imkonini beradi.*

## Izlanish

Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida bu bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni amalga oshirish ishlari boshlandi.

U atmosfera-vakuum kolonnasini modernizatsiya qilish, shuningdek, mineral bazaviy moylar ishlab chiqarish qurilmalarini ta’mirlashni nazarda tutadi. Maqsad — moylarning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini eng ilg‘or Yevropa standartlariga javob beradigan darajaga yetkazishdan iborat.

— Bazaviy moylar sifatini yaxshilash dasturi — kompaniyaning innovatsiyaga intilishi hamda mahsulotlarni takomillashtirish sari qo‘yilgan qadamidir, — deydi “Saneg” kompaniyasi bosh direktori To‘lqin Yusupov. — Yangi katalizator gidrotozalash moslamasining imkoniyatlaridan maksimal darajada samarali foydalanish hamda antioksidant va korroziyaga qarshi yaxshilangan xususiyatlarga va yorqin rangga ega moylarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu esa mahsulotni bazaviy moylar uchun global API standartlari sari yaqinlashtiradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, gidrotozalashdan so‘ng takomillashtirilgan bazaviy moylar “SEG Motol” brendi ostida motor, transmissiyaviy, gidravlik, reduktor, kompressor va boshqa turdagi tijorat moylarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Joriy yilda kompaniya 130 ming tonnaga yaqin bazaviy moylarni ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda.

**Rahim ShERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# YOSHLARIMIZNI EZGU G‘OYALAR BIRLASHTIRADI

*Yoshlar — ertamiz egalari, kelajagimiz vorislari. Shu ma’noda, bugungi kunda ularning puxta bilim olishiyu kasb-hunar egallashi, sport bilan shug‘ullanishi, umuman, hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.*

*Navoiy viloyati misolida razm soladigan bo‘lsak, o‘tgan yil ham hududda yoshlarning o‘z iqtidori, imkoniyat va salohiyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoit muhayyo etilib, bu boradagi muammolarga izchillik bilan yechim topilayotir.*

## Munosabat

Xususan, hisobot davrida “yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlardan 13 ming 623 nafarining muammolari ijobiy hal etildi. Bunda yer maydonlari ajratish, imtiyozli kreditlar berish, o‘zini o‘zi band qilishi, to‘lov-shartnoma mablag‘larini qoplash, tibbiy xizmat ko‘rsatish, haydovchilik guvohnomasi va safarbarlik chaqiruvi rezervi xarajatlarini qoplash, umuman, bandligini ta’minlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Navoiylik yoshlar uchun muhim bir qulaylik — viloyat markazida “Yoshlar texnoparki” foydalanishga topshirilganini alohida qayd etmoq joiz.

Uning birinchi va ikkinchi qavatlarida Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, viloyat oliy o‘quv hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlari va iqtidorli yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmasi o‘rin olgan. Xususan, quyosh konsentratori, magnezit va grafitli olovbardosh materiallar, vermikulitdan tayyorlangan yengil plitalar va ko‘chatlar uchun bioparchalanuvchi tuvakchalar hamda urug‘larni ekishdan oldin qobiqlashda va o‘simliklarni barglardan oziqlantirishda bentonitdan foydalanish usullarining joy olganligi bilim, salohiyat va komillik sari intilayotgan viloyat yoshlarining yurtimizda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan yuksak e’tiborga javobi, desak, aslo mubolag‘a emas.

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanib, globallashuv jarayonlari deyarli har kuni hayotimizga o‘z tuzatishini kiritib borayotir. Bu xususda so‘z borar ekan, eng avvalo, yoshlarimizda ma’naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, har qanday yot g‘oyalar, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi tahdidlarga o‘zlarining xulq-atvor hamda bilim va salohiyatlari bilan qarshi tura oladigan, tengdoshlari taqdiriga befarq bo‘lmagan yigit-qizlarni ezgu g‘oyalar atrofiga birlashtirish joriy yilda ham bosh vazifamiz bo‘lib qoladi.




Chunonchi, Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida Navoiy viloyati tajribasi sifatida yigit-qizlarni zamonaviy kasb-hunarga, axborot texnologiyalari, dasturlash, logistika, 3D modellashtirish, animatsiya va grafik dizayn kabi sohalarga o‘qitish maqsadida viloyatning barcha tuman (shahar)larida o‘quv markazlarini to‘liq tashkil etish hamda har yili 600 nafarga yaqin o‘smirlarni o‘qitish ko‘zda tutilgan.



“Yoshlar daftari” orqali viloyatda 7 ming 586 nafar navqiron avlod vakilining bandligini ta’minlash, ularning ishsizlik darajasini 7,5 foizga kamaytirish, 5 ming 183 nafar ishsiz yigit-qizni kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o‘qitish, subsidiya, yer maydoni va kreditlar ajratish, 14 ming 826 nafarining manzilli ro‘yxatini shakllantirib, rasmiy sektorga o‘tkazgan holda ularning ishli bo‘lishiga ko‘maklashish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, yilning ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda davlat ko‘magiga muhtoj 4 ming 281 nafar yoshni “og‘ir toifa”ga kiritib, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal qilish orqali hayoti yaxshilanishiga ko‘maklashish, Qiziltepa tumanining Toshmachit mahallasi hududida zamonaviy sport majmuasini qurish, viloyatning Navbahor tumanida Yoshlar markazini, Navoiy shahrida esa zamonaviy kutubxona barpo etish maqsad qilingan.

Bu hali hammasi emas. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahallalardagi minglab yigit-qizlar, “Ibrat farzandlari” “YouTube” platformasi va “Ibrat Academy” mobil ilovasi, shuningdek, “UzChess”, volontyorlik va liderlik loyihalari hamda intellektual o‘yinlarga ko‘plab yoshlar qamrab olinadi.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlardagi yoshlardan iborat mehnat migrantlari ro‘yxati shakllantirilib, ularni Vatanga qaytarish, qiziqishlariga qarab ish va o‘qish sharoitlarini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda. Jinoyatchilikka moyilligi bo‘lganlar bilan ishlashda “Harakatlar rejasi” tayyorlanib, ularni sog‘lom ma’naviy muhitga qaytarish, jinoyat sodir etishlarning oldini olish tadbirlari ishlab chiqildi.

Albatta, mazkur chora-tadbirlar bilan birga, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi asosida viloyat yoshlarining ilmiy hamda ijodiy izlanishlarini, sport va boshqa sohalardagi salohiyat va iqtidorini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan turli tadbirlar, musobaqalar o‘tkazish rejalashtirilgan.

**Umidjon BAHROMOV,**
**Yoshlar ishlari agentligining Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig‘i.**

# TALABALARNING DIZAYNERLIK MAHSULOTLARI EKSPORTGA CHIQARILYAPTI

*Bugungi kunda Namangan to‘qimachilik sanoati instituti viloyatdagi qirqdan ortiq korxonalar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Buning dastlabki natijalarini “4+2” dasturi doirasida ishga olingan talabalar tomonidan dizaynerlik loyihalari asosida tayyorlangan mahsulotlar eksport qilinayotganida ham yaqqol ko‘rish mumkin.*

## Intilish

Mazkur oliy ta’lim muassasasining to‘qimachilik dizayn fakultetida 254 talaba tahsil olayotgan bo‘lsa, ularning 54 nafar bitiruvchisi “NT holding” to‘qimachilik klasterida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga jalb etilgan. Ular haftaning to‘rt kunida institutda nazariy hamda qolgan ikki kunida ishlab chiqarish subyektida o‘quv amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazadi.

Dizaynerlik yo‘nalishida 23 nafar yigit-qiz darsdan bo‘sh vaqtlari hisobga olinib, mustaqil ishga qabul qilingan.

O‘ziga yarasha iqtidor sohibasi Manzura Qudratova asli qo‘qonlik. A’lo o‘qish bilan birga, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishni maqsad qilgan ushbu talaba yaratgan o‘ndan ortiq loyihalar xorijdagi hamkorlar tomonidan ma’qullanib, ishlab chiqarishga joriy etildi.

— “4+2” dasturidan baraka topayotgan talabalardanman, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi, — deydi u. — Nega deganda, men o‘qish davomida mazkur korxonaga shartnoma asosida ishga qabul qilinib, matolarning dizaynini yaratish bilan shug‘ullanyapman. Albatta, talaba-yoshlarga mana shunday imkoniyatlar yaratib berilayotgani ezgu maqsadlarimiz sari dadil qadam tashlashimizga keng yo‘l ochib beryapti.

Darvoqe, Manzura yaqinda korxona rahbarlari, xorijlik hamkorlar, institut professor-o‘qituvchilari, dizaynerlar uchun o‘zining yangi loyihasi taqdimotini o‘tkazdi. Bahor fasliga mo‘ljallangan mazkur loyihada iste’molchiga iliq kayfiyat beruvchi ranglar jilosiga asosiy e’tibor qaratilgani yig‘ilganlar tomonidan alohida e’tirof etildi.

Aytish lozimki, hozirgi paytda mazkur to‘qimachilik klaster korxonasining ip-yigiruv, to‘quv-bo‘yash va tikuv korxonalarida umumiy hisobda 100 dan ziyod talabalar mehnat qilyapti. O‘rnatilgan hamkorlik talabalarda mustaqil ishlash uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish barobarida, ularning kelajakda doimiy ish o‘rni bilan ta’minlanishi imkoniyatini ham yaratmoqda.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## Kitob javoningizga

# “ABU ALI IBN SINO”




*“Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan yozuvchi Abdujalol Rahimning “Abu Ali ibn Sino” tarixiy roman-trilogiyasi to‘liq nashrdan chiqarildi.*

Romanning 1-kitobi “Buxoro” deb atalgan. Unda buyuk vatandoshimizning bolaligi, o‘smirligi, hayotining 1005-yilgacha, ya’ni yigirma besh yoshigacha Buxoroda kechgan davri qalamga olingan.

2-kitob — “Xorazm”da esa ulug‘ tabib, allomaning Xorazmga kelishi, bu zamindagi hayoti va faoliyati (milodiy 1005 — 1011-yillar) haqida hikoya qilingan.

Trilogiyaning 3-kitobi “Xuroson, Hamadon” deya atalib, unda allomaning 1012-yilda Xorazmdan Jurjon tomon yo‘lga chiqishi, ziyoriylar, buvayhiylar yurtidagi hayoti va faoliyati haqida tasavvur beradi.

Roman-trilogiya kitobxonlar javonidan munosib o‘rin egallaydi, degan umiddamiz.

# BILIM VA G‘OYA — ENG KATTA SARMOYA

*O‘tgan yilning 20-dekabr kuni davlatimiz rahbari ishtirokida Raqamli boshqaruv markazida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga asosan olib borilayotgan ishlar taqdimoti o‘tkazildi.*

## Barkamol avlod orzusi

Aytish joizki, ushbu strategiyada mamlakatimizni mintaqaviy “IT xab”ga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohaviy xizmatlarni raqamlashtirish, infratuzilmani yaxshilash, IT ta’limni rivojlantirish kabi muhim omillarni talab etadi.

Yuzma-yuz muloqotda Prezidentimiz bu borada erishilgan natijalar, yutuqlarni sarhisob qilib, yaqin istiqbolga mo‘ljallangan reja-maqsadlarga to‘xtalib o‘tdi. Ayni jarayonda yangi avlod vakillari, xususan, farg‘onalik yosh dasturchi Muhammadqodir Abduvoyitov erishayotgan muvaffaqiyatlarni mamnuniyat bilan ta’kidladi.

— Bu yutuqlarimda keyingi yillarda yurtimizda jahon andozalari darajasida yaratilgan zamonaviy sharoitlarning ahamiyati beqiyos, — deydi yosh dasturchi. — Keling, shu o‘rinda birgina Farg‘ona viloyatidagi qulayliklarga e’tibor qaratamiz.

Ayni paytda viloyatda IT sohasida 69 ta rezident ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 11 tasi eksportga, 32 tasi ichki bozorga dasturiy mahsulotlar tayyorlaydi, 26 ta IT kompaniya ta’lim yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan. Birgina o‘tgan yilning o‘zida ular tomonidan eksportga 130 ta, ichki bozor uchun 220 dan ortiq dasturiy mahsulotlar yaratildi. 2023-yilda 47,5 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib, 2,4 mln. dollar hajmida eksport amalga oshirildi.

“Besh muhim tashabbus” doirasida viloyatning 19 ta shahar-tumanida Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etildi va o‘tgan davrda bu yerda o‘qigan 13 ming 200 nafar navqiron avlod vakiliga maxsus sertifikatlar topshirildi. Yosh dasturchilarning o‘nlab startap-loyihalari moliyalashtirildi.

Muhammadqodir IT sohasi bilan 12 yoshidan buyon shug‘ullanadi. Shu kungacha ko‘plab nufuzli xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘ldi. Misol uchun, 2022-yili poytaxtimizda uyushtirilgan “GovAward” tanlovining final bosqichida dasturiy mahsuloti “Top-7” loyihalari sirasiga kiritilgan. 2022-yili Rossiyada bo‘lib o‘tgan “HSE Fest” startap loyihalar tanlovi hamda 2023-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilgan “Startup Battle da Yandex”da nominatsiya g‘olibi, deb topildi.



O‘tgan yili yaratgan “Braille Recognition” innovatsion mobil ilovasi dunyo miqyosida yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgani yanada quvonarlidir. Bu dastur ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarning yaqinlari, o‘qituvchilar, shuningdek, Brayl alifbosi bilan ishlovchi har bir inson uchun mo‘ljallangan. U telefon kamerasi bilan olingan tasvirlardagi Brayl harflarini tanib olish va avtomatik ravishda oddiy matnga tarjima qilish imkonini beradi.

Dastur ilova tasvirdagi Brayl harflarini tanib olish uchun kuchli algoritm bilan jihozlangan. Bu unga belgilarni yuqori aniqlikda bilishda qo‘l keladi. “Braille Recognition” tanib olingan Brayl belgilarini foydalanuvchi tanlagan tilga tarjima qiladi. Foydalanuvchilar o‘girilgan bu matnni telefon ekranida olishi yoki ovoz sintezatori yordamida tinglashlari mumkin. U ilova rasmni darhol qayta ishlaydi va natijani real vaqt rejimida taqdim etadi, bu sizga kerakli ma’lumotlarni tezda olish imkonini beradi.

Dunyoda muqobili yo‘q ushbu dastur turli tillardagi Brayl harflarini tanib olish va tarjima qilishni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa, undan jahon bo‘ylab keng foydalanish imkonini beradi. Ilovani tezkor tizimlarga ega smartfon va planshetlarga o‘rnatish imkoniyati ham mavjud.

Shuningdek, mazkur ilova ko‘zi ojiz bolalarning ota-onalari uchun uy vazifalarini bajarishda va ularning o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlashda qo‘l keladi. Chunki Brayl alifbosida yozilgan darsliklar, qo‘shimcha topshiriqlar kabi o‘quv materiallarini oson tarjima qilish uchun “Braille Recognition”dan foydalanish mumkin. Bu ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqani yaxshilaydi hamda ota-onalarga o‘z farzandining ta’lim jarayonida faol ishtirokchi bo‘lishga yordam beradi. O‘z navbatida, mazkur ilova o‘qituvchilarga Brayl alifbosida taqdim etilgan uy vazifalari va testlarni tekshirishni osonlashtiradi. Umuman olganda, ilova ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi insonlar jamiyat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

— Yaqinda “Focus Group” kompaniyasiga asos solib, o‘tgan qisqa davrda nafaqat mamlakatimiz, balki xorij davlatlaridan tushgan buyurtmalar asosida o‘nlab mobil ilovalar, veb-saytlar yaratib berishga muvaffaq bo‘ldik, — deydi yosh dasturchi. — Prezidentimizning yuksak e’tirofi jamoamizni behad quvontirdi. Hozir Rossiya, Qozog‘iston kompaniyalari bilan hamkorlikda bir necha istiqbolli loyihalar ustida ishlayapmiz. Yaqin kelajakda dasturiy mahsulotlar eksportini million dollardan oshirishni maqsad qilganmiz.

Eng muhimi va asosiysi, “Local to Global” tamoyili orqali kompaniyamiz mahsulotlarini keng miqyosda eksportga yo‘naltirish, Farg‘onada nufuzli xalqaro kompaniyalar ofisini ochish, mahalliy yoshlarni xalqaro IT sertifikatiga o‘qitishni rejalashtirmoqdamiz. Bu borada Prezidentimiz ishtirokida 2023-yilning 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligida o‘tkazilgan uchrashuvda ilgari surilgan ezgu tashabbuslar muhim dasturilamal bo‘ladi.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusiga ko‘ra joriy yildan yurtimizning barcha hududida “Har bir mahallada kamida ikki nafar dasturchi” loyihasini amalga oshirishga kirishiladi. Iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo‘lib to‘lash sharti bilan kompyuter va texnikalar beriladi. 50 dan ortiq ish o‘rinlari yaratgan va chet eldagi xalqaro konferensiyalarda qatnashadigan dasturchilar bir qator imtiyozlardan foydalanadi.

— Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg‘ona filialida uyushtiriladigan seminarlarda faol qatnashib, talabalarga o‘z bilim va amaliy tajribam bo‘yicha ma’ruzalar o‘qib turaman, — deya suhbatimizni davom ettiradi iqtidorli dasturchi. — Shuningdek, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘tkaziladigan o‘quv kurslari faoliyatini muntazam ravishda kuzatib boraman. Shu tariqa IT sohasida iste’dodli yigit-qizlarni kashf etish, faoliyatini rag‘batlantirishga harakat qilamiz.

Muxtasar aytganda, bugun yurtimizda IT sohasini jadal rivojlantirish borasida jahon andozalari darajasida qulay shart-sharoitlar yaratilayotir. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizning ushbu yo‘nalishdagi investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, dunyo miqyosida bo‘ylasha oladigan yangi avlod mutaxassislarini tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotgani e’tiborga loyiq.

**Botir MADIYOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# “SOHIBJAMOL DARAXT”

*Taniqli shoir, tarjimon Tursun Alining “Sohibjamol daraxt” to‘plamidan o‘rin olgan yangi she’rlarini o‘qir ekansiz, “g‘aroyib kechaning og‘ushi”da “tong nafasi”ni his etgan, “qarog‘ida ajib alanga” jilolangan qushcha ramzini anglagan, “sabr otida sahro kezgan oshiq” holidan ogoh qalb manzarasi, kechinmalari, asroridan voqif bo‘lasiz.*




She’rlarida shakl va ifoda uslubi o‘zgacharoqdek tuyulsa-da, ular barcha uchun tushunarli bo‘lgan ishqu ilhom, zavqu hayrat, his-idrok tili bilan bitilgani bois ham so‘z ixlosmandlari ko‘nglidan, shuuridan o‘z o‘rni va qadrini topishiga ishonchimiz komil.

Shuningdek, to‘plamga ijodkorning so‘nggi yillarda yozgan sochmalari, adabiy etyudlari hamda Xitoy she’riyatidan qilgan tarjimalari ham kiritilgan.

**“Xalq so‘zi”.**

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi jamoasi Milliy markazning inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarni implementatsiya qilish bo‘limi bosh mutaxassisi Asiya Jasimovaga otasi
**Islom JASIMOVning**
vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 808 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.48 Topshirildi — 01.25 1 2 3 4 5 6